



PANDEMIYADAN KEYINGI DAVRDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI



5-6 oktabr

Buxoro – 2021

Ходжаева Д.Х.	Особенности развития сельского туризма после пандемии в Республике Узбекистан	84
Ashurova M.X.	O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirish istiqbollari	86
Boltaeva M. Sh.	Yangi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashning zamonaviy yo'nalishlari	89
Radjabova M. A.	Features of the production of tourist routes	91
Саидова Ф. К.	Жондор тумани иқтисодий имкониятлардан фойдаланиш йуллари	93
Shadiev A.X.	Turizm marketing kommunikatsiyasining ahamiyati	96
Dilmonov K.B.	Features of the development of the infrastructure of historical architectural objects	98
Ro'ziyeva N.Ch.	O'zbekiston ekoturizmi rivojlanishida xorij tajribasi	101
Alimova Sh. O.		101
Tulaeva Kh.U.	Opportunities and challenges for tourism industry after pandemic period	104
Ахтамова М.Э.	Ситуация в туристическом секторе Нурабадской экосистемы, вызванная пандемией: проблемы и решения	106
Ибодуллаев У.		106
Ходжаев Х.		106
Ҳакимов У. А.	Пенсия таъминоти тизими: ривожланган мамлакатлар тажрибаси	108
Kadirova Sh.X.	Pandemiyadan keying davrda transport xizmatlarini takomillashtirish yo'nalishlari	111
Bozorova S.K.	The ability to form a brand of the tourist destination of Bukhara based on the existing image	112
Muxamedova M.M.		112
Farmanov E.A.	Buxoro viloyatida pendemiyadan so'ng transport xizmatlar sifatini oshirish yo'llari	114
Boltavea Sh.B.	O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning o'ziga xususiyatlari	117
To'yrova S.A.	Definition and understanding of tourist product	118
Choriyev R. N.		118
Урокова Д.Б.	Применение инновационных технологий в развитие туризма и гостиничного бизнеса	120
O'roqova D.B.	Mehmonxonalarda innovatsion faoliyat funksiyalaridan samarali foydalanish yo'llari	122
Tojiyeva M.V.		122
Salimova S.F.	Joylashtirish vositalarining xizmatlarini siljitishda onlayn sharhlarning ta'siri	124
Ахтамова М.Э.	Пути повышения туристической привлекательности Узбекистана в постпандемический период	126
Лим Н.В.		126
Ахтамова М.Э.	Пути внедрение инновационных и смарт форм экотуризма как способ повышения туристической конкурентоспособности Самарканда	127
Болтабоев Х.С.		127
Yuldashev K.Sh.	Pandemiyadan so'ng O'zbekiston Respublikasida mustaqil turizm infratuzilmasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	129
Арипова М. С.	Сравнительный анализ различных подходов к определению понятия бренда	133
Сайфуллаева М., Абдуллаева Х.	Перспективные направления оживления туризма в Узбекистане в период постпандемии	136
Kamolov X.Z.	Turizmni diversifikatsiya qilishda tur firma faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	138
Axrorova N.U.	Pandemiyadan keyingi davrda O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish yo'llari	141
Murodov F.B.		141
Oripova Z. Q.	Pandemiyadan keyin kadrlar tayyorlashda turizmning rivojlanish tarixini o'rganish	142
Isokova G.Sh.	Korporativ turizmni rivojlantirishda marketingning o'rni	145
Haydarova D.I.	Properties for the formation of a positive tourist image of Uzbekistan on the basis of couchsurfing	147
Radjabov O. O.	The role of influencers on the development of tourism in Uzbekistan	148
Mambetkadirova G. R.		148

реструктуризации аграрного сектора экономики, позволяя перевести избыток трудовых ресурсов в альтернативный сектор производства услуг и создавать новые рабочие места в сельской местности.

Другим важнейшим фактором успешного развития сельского туризма как сектора туристской индустрии стало то, что туристический продукт отвечал запросам нового потребителя со средним достатком, который составляет крупнейший сегмент платежеспособного спроса.

Кроме этого необходимо отметить, что микроэкономическая модель сельского туризма оказалась весьма эффективной. Производство туристического продукта, по сравнению с другими секторами туристической индустрии, выглядит достаточно малозатратным. Это означает, что сельский туризм может конкурировать по показателю «цена - качество» с другими туристическими продуктами.

Организация сельского туризма в Узбекистане – это одна из составных частей общегосударственной программы развития туризма.

Региональные программы развития сельского туризма включают в себя, конкретные меры по созданию материально-технической, институциональной базы для развития сельского туризма. Механизм его поддержки со стороны государственных и местных органов власти (организационный, экономический, финансовый), а также других предпосылок и условий, призванных сформировать благоприятный климат для потенциальных субъектов туристического бизнеса. При этом эффективное развитие туризма в сельской местности требует определенной и зачастую необходимой государственной поддержки.

Одной из таких программ является создание туристических деревень в районах с высоким туристическим потенциалом. Создание таких деревень, в период постпандемии, для развития туризма в Узбекистане послужит безусловному развитию данной сферы.

O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

BuxDU, Ashurova Muborak Xayrulloevna

Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. "O'zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: **"Tadbirkorlik-mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir"**.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida xususiy mulkchilik va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, o'z biznesini yo'lga qo'yish istagini bildirgan aholi vakillariga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilangan. Bu borada xususiylashtirilgan davlat mulki negizida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini yangi sifat darajasiga ko'tarish, xususiylashtirilgan tadbirkorlik sub'ektlarini samarali qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston "Iqtisodiy erkinlik indeksi 2020" hisobotida o'z natijasini avvalgisiga nisbatdan 26 pog'onaga yaxshilab 114-o'rinni egalladi

Iqtisodiy erkinlik indeksi **"Heritage Foundation"** (Meros Jamg'armasi) tadqiqot markazi tomonidan **"Wall Street Journal"** bilan hamkorlikda 1995-yildan buyon yuritiladi.

Indeks metodologiyasi

- «Iqtisodiy erkinlik indeksi» 4 ta guruhga - Qonun ustuvorligi, Davlatning iqtisodiyotdagi o'rni; Tartibga solish samaradorligi hamda Bozor ochiqchiligi birlashtirilgan 12 ta komponentni (*mulk huquqi, sud faoliyati samaradorligi, davlat yaxlitligi; soliq yuki, davlat xarajatlari, fiskal siyosat; biznes erkinligi, mehnat erkinligi, pul-kredit siyosati erkinligi; savdo erkinligi, investitsiya erkinligi, moliyaviy erkinlik*) o'z ichiga oladi.

- Indeks yillik hisobotida 186 mamlakat 100 ballik tizimda baholanadi. Har bir indikator bo'yicha berilgan ballar teng kuchga ega va umumiy ball 12 ta komponentning o'rta arifmetigi sifatida aniqlanadi.

- Tuzuvchilar fikriga ko'ra, indeksning qiymati qancha katta bo'lsa, mamlakat shunchalik iqtisodiy jihatdan erkin bo'ladi. Indeksiga binoan davlatlarning iqtisodiy erkinlik darajasi 5 ta guruhga bo'linadi:

- Davlatda iqtisodiyot to'liq erkin: 80-100 ball;
- Davlatda iqtisodiyot asosan erkin: 70-79,9 ball;
- Davlatda iqtisodiyot o'rta erkin: 60-69,9 ball;

- Davlatda iqtisodiyot asosan erkin bo'lmagan: 50-59,9 ball;
- Davlatda iqtisodiyot to'liq erkin bo'lmagan: 0-49,9 ball.
- Indikatorlar natijalari davlat organlari tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar hamda turli xalqaro tashkilotlarning (World Economic Forum, World Bank, International Monetary Fund, Credendo Group, Transparency International va boshqalar) reyting hisobotlari natijalariga asoslanadi.
- «Iqtisodiy erkinlik indeksi» 2020 hisoboti uchun 2018 yil 1 iyuldan 2019 yil 1 iyulgacha bo'lgan ma'lumotlar bazasi asosida tahlil qilingan.

Eng yaxshi natijalar

- 2020 yil hisobotiga ko'ra eng yuqori 10 talik natija - Singapur, Gonkong, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Shveysariya, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Kanada, Estoniya davlatlariga tegishli.
- O'zbekiston 2020 yilgi hisobotda avvalgi natijaga qaraganda o'z o'rnini **26 pog'onaga yaxshilab, dunyoda 114 – o'rinni egalladi.**
- O'zbekiston Respublikasi **57,2 ball** (100 dan) to'plagan.
- So'nggi 3 yil davomida, reyting o'zni **38 pog'onaga yaxshilandi** (2018 – 152)
- Osiyo-tinch okeani mintaqasida Vanatu (+3,3), Qozog'iston (+4,2), Vetnam (+3,5) va Maldiv orollari (+3,3) bilan bir qatorda O'zbekiston o'z ballini **+3,9 ballga** yaxshilagan holda mintaqadagi **eng yaxshi 5 ta mamlakat** qatoridan o'rin egalladi.
- Osiyo-tinch okeani mintaqasida O'zbekiston **42 mamlakat orasida 26-o'rinni egalladi (+10 pog'ona** avvalgi hisobotga nisbatan).
- So'nggi hisobot natijalariga ko'ra, 2020-yil uchun O'zbekiston savdo erkinligi bo'yicha **top (62-ta davlat keltirilgan islohotchi mamlakatlar)** qatoriga kirdi.

Eng yomon natijalar

- Quyi beshta o'rindan – Kongo Respublikasi, Eritreya, Kuba, Venesuyela va Shimoliy Koreya davlatlari joy olgan.



Yaxshilangan ko'rsatkichlar

- **O'zbekiston 12 ta indikatorning 11 tasida** ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan. Shunga qaramay bir qancha ko'rsatkichlarda natijalar pastligicha qolmoqda.
- **O'zbekistonning** yaxshi natija qayd etgan ko'rsatkichlari quyidagilar:
- **Fiskal siyosat** (98.9 ball, **+0.2 o'sish**) - so'ngi uch yildagi byudjet kamomadi ko'rsatkichiga asoslanadi. Bunda, O'zbekiston eng yaxshi natija ko'rsatgan davlatlar qatoridan joy olgan.
- **Soliq yuki** (91.6 ball, **+0.3 o'sish**) - daromad solig'i yuki, korxona daromadlaridagi soliq yuki va umumiy soliq yukining YAIMga nisbatan fo'izdagi ulushi kabilarni o'z ichiga oladi. Bunda avvalgi hisobotdagi ko'rsatkichga qaraganda soliq yuki 0.9 % kamaygan. Yangi tahrirda qabul qilingan soliq kodeksi ushbu ko'rsatkichni yanada yaxshilashga qaratilgan.
- **Davlat xarajatlari** (74.7 ball, **+7.3 o'sish**) - byudjet taqsimoti asosida baholanadi. Bunda, avvalgi natijaga qaraganda xarajatlarning YAIMga nisbatan 4.0%ga kamayishi kuzatilgan.
- **Biznes erkinligi** (72.6 ball, **+0.1 o'sish**) - biznesni boshlash, litsenziya olish, biznesni tugatish, Elektr ta'minoti tizimiga ulanish kabilar tahliliga asoslanadi.
- **Savdo erkinligi** (67.6 ball, **+5 o'sish**) - tovar va xizmatlarni import va eksportiga ta'sir qiluvchi o'rtacha tarif va notarif baryerlar asosida baholanadi.



Yaxshilash uchun zaif sohalar

- **Moliyaviy erkinlik** (20 ball, **+10 o'sish**) - kredit taqsimotida davlatning aralashuvi, kapital bozorining rivojlanish darajasi va raqobat erkinligi asosida baholanadi. Ushbu natija mazkur sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyati borligini anglatadi.
- **Investitsiya erkinligi** (20 ball, **+10 o'sish**) - odatda investitsiya muhitiga salbiy ta'sir etadigan turli huquqiy cheklolar mavjudligini baholaydi. Qayd etilgan past natija ushbu sohani tubdan tahlil qilgan holda islohotlarni amalga oshirish lozimligini bildiradi.
- **Davlat yaxlitligi** (28.2 ball, **+3 o'sish**) - pora berish, davlat siyosati shaffofligi, korrupsiya darajasi, davlat xizmatchilari faoliyati shaffofligi ko'rsatkichlarini tahlil qiluvchi mazkur ko'rsatkichlarda ijobiy

o'sish kuzatilgan. Lekin umumiy ijobiy natijaga qaramay ushbu ko'rsatkich natijalarini yaxshilash bo'yicha aniq chora tadbirlar ko'rish lozimligini anglatadi.

- **Sud faoliyati samaradorligi** (34.2 ball, **-0.1 pasayish**) - sudlarning mustaqilligi, sud jarayoni samaradorligi, sud qarorlarida favorotizm va siyosatchilarga xalqning ishonchi ko'rsatkichlari bo'yicha baholanadi.

- **Mulk huquqi** (59.1 ball, **+9.3 o'sish**) - moddiy mulk huquqi, intellektual mulk, investorlarni himoya qilish, mulkning musodara qilinish xavfi va yer ma'murchiligining sifati orqali baholanadi.

- **Mehnat erkinligi** (59.9 ball, **+1.2 o'sish**) - eng kam ish haqi; noqonuniy ishdan bo'shatishga to'sqinlik qiluvchi qonunlar; nafaqa to'lash bo'yicha talablar va ishga yollash va ish soati bo'yicha me'yoriy cheklovlar, shuningdek mehnat bozorida barcha ishchilarning ishtirok etish imkoniyatini nazarda tutadigan mamlakatlardagi mehnat bozori bo'yicha normativ-huquqiy bazasidagi jihatlarni hisobga oladi.

- **Pul-kredit erkinligi** (59.9 ball, **+1 o'sish**) - oxirgi uch yildagi inflyatsiya darajasi hamda narxni jilovlashga asoslanadi.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik sub'yektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

MULK HUQUQI



BIZNES ERKINLIGI

